

# MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining iqtidorli talabalar ilmiy to‘plamlariga bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha talabalar o‘z ilmiy maqolalarini to‘plamda nashr etish uchun taqdim etishlari mumkin. Nashr uchun taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar quyidagi yo‘nalishlardan biriga mos kelishi lozim:

1. Sharq tillari va adabiyoti;
2. Tarjimashunoslik;
3. Sharq xalqlari tarixi va tarixshunoslik;
4. Sharq falsafasi va madaniyati;
5. Xalqaro munosabatlar;
6. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti.

Taqdim etilayotgan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, kirish, tahliliy qism va xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat holda shakllantirilishi zarur. *Maqolaga ilmiy rahbar xulosasi ilova qilinadi.*

O‘zbek, rus va ingliz tilida yozilgan ilmiy maqolalar bosma va elektron tarzda, ilmiy rahbar taqrizi bilan birgalikda Iqtidorli talabalar markaziga taqdim etilishi kerak. Ilmiy to‘plamga faqat ekspert tomonidan nashrga tavsiya etilgan ilmiy maqolalar kiritiladi.

## **Taqdim etilayotgan maqolalarni rasmiylashtirish talablari:**

1. Ilmiy maqolalar MS Word 95-2003, 2007, 2010 (RTF) formatida, Times New Roman shriftida, 14 hajm kattalikda, 1,5 intervalda yoziladi.
2. Taqdim etilayotgan maqolalar 5 betdan kam bo‘lmasligi va 7 betdan oshmasligi lozim.
3. Qog‘oz hajmi A4, tepadan, pastdan, chapdan, o‘ngdan 2 sm qoldiriladi.
4. Birinchi qatorda o‘rtadan bosh va qalin harflarda mavzuning nomi, 2- qator o‘ng tarafdin muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, 3-qatorda o‘ng tarafdin muallifning ta‘lim yo‘nalishi, kursi, telefon raqami va elektron pochta, 4-qatorda o‘ng tarafdin muallif ilmiy rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ilmiy lavozimi va unvoni, 5-qatordan matn yoziladi.
5. Qo‘yilgan talablarga javob bermaydign maqolalar chop etilmaydi.